

CHÓLPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ASARI TAHLILI BADIYYATI

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi
Sattorova Nafisa*

Anotatsiya

Ushbu maqolada Abdülhamid Chólpon qalamiga mansub "Kecha va kunduz" asari tahlili yoritiladi va undagi obrazlar tizimi haqida gap yuritiladi. Asardagi obrazlar timsoli va yozuvchi biografiyasiga oid jihatlar yoritiladi.

Kalit sózlar: Tahlil, Tanqid, Asar, Kunduz, biografiya, obraz

Kirish

Cho'lpon – Oktyabrdan ilgari burjua-jadid yozuvchi sifatida maydonga chiqqan kishi. Oktyabrdan keyin ochiqdan-ochiq bolshyeviklarga va sovet hokimiyatiga qarshi aktiv kurashib, o'z ijodida aksilinqilobiy millatchilar g'oyasini o'tkazib keldi. Cho'lpon o'zbek millatchilarning balog'atga yetgan, maqtalgan san'atkori bo'lib, millatchilar u bilan faxrlanar edilar. Cho'lpon ko'p yillargacha va hozir ham shu iflos botqoqlik ichida qoldi. "Sozim", "Jo'r" (bosilmagan) degan she'r to'plamlari bilan "Kecha va kunduz" romani bunga misol bo'la oladi. "Kecha va kunduz" romanini birinchi bo'limi ("Kecha" qismi) 1936-yilda bosilib chiqdi. Cho'lpon romanning "Kecha" qismida mingboshilarda, chor hukumatining mahalliy amaldorlarida bo'lgan ayrim kamchiliklarni – qo'polliq kabi yomon sifatlarni jadidchilik nuqtai nazaridan tanqid qiladi. Miryoqub, Akbarxon mingboshilarni umuman odamparvar kishilar ravishda tasvirlaydi, (masalan Qum ariqdagi janjalda mingboshi kambag'allar "tarafini oladi"), lekin ularning axloqsizliklari esa jadid bo'lmaganlaridan kelib chiqqan narsa, agar jadid bo'lsalar edi, axloqsiz bo'lmas edilar degan xulosani chiqaradi. Miryoqub jadid bo'lganidan keyin darhol madaniyatli bir kishi va fazilat egasi bo'lib ketadi. Odamlarga "g'amxo'rlik" qiladi, Masalan, bir fohishani botqoqliqdan qutqarib, o'ziga xotinlikka oladi. Asarda boylar va amaldorlarning mehnatkash xalqqa qilgan behad zulm-sitamlari-yu vahshiyona eksploatasiya to'g'risida bir og'iz ham gap yo'q. Asarda o'tmish jamiyatdagi sinfiy qarama-qarshiliklar, sinfiy kurash ongli ravishda tumanli qilib, pardalanadi. Mehnatkash xalqning o'z ezuvchilariga; boylar, mingboshilar, savdogarlar, kolonizatorlarga qarshi inqilobiy qo'zg'olonlari haqida indamay o'tuladi. Yozuvchi ezilgan sinf ichidan ijobiy qahramon topishni ham o'ziga ep ko'rmagan. Cho'lpon o'tmishdagi sinfiy kurashni ko'rsatishni parnografiya bilan almashtiradi. Shu bilan sovet yoshlarini, o'sib boruvchi bo'g'inni chirik nazariya bilan zaharlamoqchi, buzmoqchi bo'ladi. Cho'lpon fahshlikni tasvirlaganda uning sosial-iqtisodiy negizini ochib berishni istamaydi. Asar odamni kishiliqdan chiqaruvchi, fahshni tug'diruvchi kapitalizm qonunlariga, eski turmushga qarshi kishida nafrat

tuygʻusini qoʻzgʻatmaydi. Aksincha, eski davr durust edi, faqat ayrim kundoshlarga – Xadicha, Poshshaxon, Saltanatxonlar va fohishaxonalardagi xotirlarning oʻzlari yaramas, ular faqat jinsiy orom olish uchun yashaydilar degan natija chiqadi. Romanda Turkistonni mustamlakaga aylantirgan chor hukumatining, kolonizatorlarning vahshiyona harakatlari, yerli mehnatkash xalqni ezishlari bilaturib pardalangan va kolonizatorlar yaxshi kishilar sifatida koʻrsatgan. Chor hukumatining vakili sifatida berilgan kabi toʻrani Choʻlpon juda muloyim, odamparvar, oʻzbeklarga yaxshi muomala qiluvchi, katta inqilobiy kayfiyatga ega boʻlgan kishi ravishda koʻrsatadi (Oʻz oshpazi Zunnunga yaxshi munosabatini va uni mingboshi qilib tayinlaganini eslang). Yozuvchi “Kecha” orqali jadidlarning tarqatadi, ularga muhabbat bilan qaraydi. Jadidlarni “yaxshi” deb, zamonasining ilgʻor kishilari, deb tasvirlaydi. Choʻlpon ularni ham tashqi koʻrinish tarafidan, ham ichki syezgi jihatidan boshqalarga qaraganda ancha yuqorida turgan maffkurasini adaniyatli, aqlli, fazilatli, oʻrnak boʻlarlik kishilar deb tasvirlaydi; ularni xuddi xalq uchun, xalq manfaati uchun oʻzbek millati uchun kurashuvchi sifatida taqdim etadi. Bunga misol qilib jadidlashgan mingboshi Abdusamadni va Ovroʻpa mamlakatlari bilan savdo qiluvchi yosh jadid personajlarini koʻrsatish mumkin. Choʻlpon jadidlarni tasvirlaganda niqoblanadi, jadidlarga toʻgʻridan-toʻgʻri oʻz tili bilan xarakteristika bermasdan bu vazifani asardan kishilarga yuklaydi. Choʻlponning qahramonlari jadidlarni maqtab, koʻklarga koʻtaradi. Miryoqub Finlandiyaga savdo uchun boruvchi jadidni tubandagicha xarakterlaydi: “Mana men endi “jadidni” koʻrib oʻtiribman. Erta-kech gapga quloq solaman; qulogʻimni uning ogʻzidan uzib olmayman... bir yomon joyini koʻrganim yoʻq. Gaplari hammasi maʼqul. Birovlarning mol-mulkiga chang solaturgʻanga oʻxshamaydi” (204-bet). Choʻlpon shu taʼrif bilan chegaralanmaydi. Fohishaxonadan olib qochilgan Mariya (Maryam) ham jadidlarga xayrixoh. Mariya ongsiz, madaniyatsiz kishilarni jadidlar qanday qilib “tarbiyalaganiga qoyil” qoladi. “Jakob (Miryoqub) ertadan kechgacha oʻsha bilan (jadid bilan demoqchi) gaplashadi. Men hech narsa anglamayman, oʻz tillarida gazetalar oʻqushadi. Yigit ruscha gazetalar oʻqub tushuntiradi. Bir tomondan olganda bu yaxshi; Jakobning fikri ochiladi. Odam boʻladi. Madaniyatlashadi”.

Jadidlar xuddi xalq manfaati uchun, Turkistonning milliy ozodligi uchun kurashuvchi qahramonlar, xalqning koʻzini ochuvchi kishilar sifatida berilgan. “Jadidning soʻzlari meni qoʻzgʻatib qoʻydi; uning soʻzlarini men ham boshqalarga xuddi oʻshaning oʻziday chiroylik va taʼsirli qilib gapirsam deyman odamlarning koʻzini ochsam deyman...” (216-bet) Romanda tarixiy faktlar qastdan, bilaturib buzulib koʻrsatilgan. Shaxsiy boyishlari yoʻlida kurashgan, shu maqsadlari yoʻlida har qanday ifloslikdan tortinmagan xalq dushmanlari va vatan xoinlari – jadidlarni xalqning haqiqiy oʻgʻillari sifatida tasvirlash tarixni qalbakilashtirishga urunishdan boshqa narsa emas. Choʻlpon jadidlarni xalq uchun jon kuydiruvchi,

inqilobiy kayfiyatga ega bo'lgan kishilar deb tasvirlaydi, (Finlandiyaga ketayotgan jadidning so'zlarini eslang). Holbuki, jadidlarning rus boylari, rus chinovniklari, chorizm bilan birga bo'lib, ular bilan murosa qilganliklari, chorizm va mahalliy eksploatatorlarga qarshi qo'zg'olon ko'targan mehnatkashlarni dorga osish, surgun qilishda chor hukumatiga ochiqdan-ochiq yordam berganlari tuzumga qarshi kurash o'rniga o'z maqsadlarini amaga oshirish uchun podshoh hukumatining mavjudligini bop bir sharoit deb anglaydilar va generallarning, chinovniklarning malaylari bo'lgan edilar. Jadidlar jahon urushida chorizm bilan birlashib, do'stlashib ketdilar. Oq podshohga jahon urushida g'alaba qozonishni tilagan edilar. 1916 yilda mehnatkash xalq qo'zg'olonni bosdirishda asosiy rolni o'ynagan, oq podshohga madhiyalar aytgan qora kuchlar ham jadidlar edi. Ularning sinfiy basharasini bo'yab xalq uchun jon kuydirishi, inqilobiy kayfiyatdagi kishilar ravishda berish tarixiy fakti bila turib bo'yashdan boshqa narsa emas. "Kecha va kunduz" da xotin-qizlar juda lavashang, bo'sh, ko'ngilchang, tez yig'layturg'an, jinsiy zavqqa intilaturg'an qilib ko'rsatiladi. (Masalan, Zebi, Sultonxon, Poshshoxon, Enaxon). Cho'lpon xotin-qizlardan kuladi, ularni masxara qiladi; zulmga, xorlash, ezilishga qarshi kuchli nafrat bilan chiqqan mehnatkash, botir, kurashchan xotin-qiz obrazini ko'rsatmaydi. Cho'lpon "Kecha" da kamabag'al aravakash O'lmasjon obraziga juda past nazar bilan qaraydi. Zebi mingboshiga tekkandan keyin O'lmasjon jim bo'lib ketadi. Uning qalbi o'ti so'ngan o'choqday sovub ketadi. Buning bilan yozuvchi mehnatkashlarni masxara qilib, ularda sevgi yo'q, ular odamgarchilikdan chiqqan deb tasvirlaydi. "Kecha va kunduz" romanining "Kecha" qismi o'tmishni bir tomonlama olib, uni ham bo'yagan; savdogarlar, mingboshilar o'rtasidagi madaniyatsizlik, axloqsizlarni jadidchilik nuqtai nazaridan tanqid qilib, xususiy mulkning hukmronligi, ekspluatasiyaning haddan tashqari ekanligini jo'rtaqa ko'rsatmaydi. O'suvchi yosh bo'g'inga zararli, yoshlarimizni zaharlovchi parnografiya asarda asosiy o'rin olgan. Asarda haqiqat va baxt-saodat uchun, ozodlik-erkinlik uchun kurashuvchi xalq qahramoni yo'q. Cho'lpon o'z asarida xalq dushmanlari – jadidlar, aksilinqilobchi millatchilarning qarashlarini talqin etib, millatchilik ideyalarini niqoblaydi va uni targ'ib qiladi. Shunisi qiziqki, O'znashr tomonidan nashr qilingan "Kecha" hech qanday bosh so'zsiz chiqqan. Holbuki asarni ko'rib bergan o'rtoq M.Hasan "Kecha"ning tub g'oyalarini ochib beraturg'an so'z boshi yozmog'i, albatta lozim edi. Cho'lpon va uning fikrdoshlari o'zbek xalqining o'mishdagi inqilobiy kurash tarixini bila turib bo'yab ko'rsatish, mehnatkashlarni masxaralash, jadidlarni maqtash orqali aksilinqilobiy millatchilikni targ'ib etish va har turli meto'dlar bilan sovet adabiyotiga zarar berish yo'llarini qo'llab keladilar. "Kecha va kunduz" asari shu targ'ib usullaridan biridir.

Asosiy qism

"Kecha va Kunduz" romani o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u ilk roman-dilogiya hisoblanadi. Afsuski, "Kunduz" qismi mavjud emas.

Romani Chor Rossiyasining yurtimizda olib borgan siyosati, o'sha davrda avomning ma'naviy dunyosiga ko'zgu tutgan asarlardan biri 2019 -yil noyabr oyida Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani Michigan universiteti aspiranti Kristofer Fort tarjimasida ingliz tilida nashrdan chiqdi. Bundan oldin Fortning Cho'lpon ijodi haqidagi maqolasi e'lon qilindi. "Minbar" taqdim etgan maqolada tadqiqotchining roman haqidagi fikr-mulohazalari keltirilgan*. Men tarjimam bilan bu ajoyib va sirli san'atkorni ingliz tilli o'quvchilarga yetkazaman. XX asr boshidagi o'zbek adabiyoti va tarixini tavsiflovchi matn va ma'lumotlarning kamligi bilan tanishgan ingliz tilli kitobxonlar Cho'lpon va O'zbekistonning o'tmishiga oid muhokamalarga qo'shilishlari mumkin. Roman obrazlaridan biri Zebi o'sha davr ayollarining beg'ubor, samimiy, soddadil bir ko'rinishi. Ayniqsa, bu holat Zebi sud qilinayotgan chog'da namoyon bo'ladi. Sibirga surgun qilinib turibdi, biroq, shunda ham uyini qanday topib olishi haqida o'ylaydi. Mingboshini u o'ldirmagani shu qadar aniqki, "Eringni o'ldirdingmi?" deb so'rashlarining o'zi kulguli. Zebi - oddiy obraz, ya'ni u xarakter sifatida o'sib chiqmagan. Bosh qahramon demasligimizga sabab, u voqealar rivojiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, aksincha, hayot uni o'z oqimi bo'ylab istagan xarsangiga uradi. U har nimaga ko'nikuvchan, moslashuvchan: otasining zindonga aylantirgan hayotiga ham, hatto mingboshiga uzatilishiga ham, u yerdagi hayotga ham ko'nadi. Agar isyon qilganda edi, mingboshini o'z xohishiga ko'ra yo'q qilmoqchi bo'lganda yoki undan ozod bo'lishni talab qilganda xarakter deya olardik. Balki, "Kunduz" qismida Zebi xarakter sifatida o'sib chiqar. Kecha va Kunduz"ni o'qib anglashimiz mumkinki, Chor Rossiyasi xalqning eng savodsiz, ma'lum fikrga bo'lmagan "manqurt" kimsalarga lavozim berib, ular orqali xalqni istaganlaricha idora etganlar. Mana shunday manqurt kimsalardan bir Akbarali mingboshi. Akbarali mingboshi xalqning arzi-dodini tinglab hal qilib berish u yoqda tursin, hatto o'z muammolarini ham yecholmaydi. Aslida, uni lavozimidan ozod etishmoqchi edi, biroq, nogoh u o'ldirildi. Hukumat esa bunga siyosiy tus berishga initilib, keraksiz "matoh"ga aylangan kishisini podshoh va Rusiya davlatiga sodiqligini ta'kidlab, Zebini salkam turk josusiga aylantirib qo'yadi. Akbarali mingboshi ular uchun oddiy "sart" ismining ham ahamiyati yo'q. Hatto birgina "tergov pratakoli"ga ismi Qambar, Umarali, Akbarali tarzida yozilib ham ketaveradi! Biroq u Rusiyaning sodiq qahramoni! Aslida "To'rt chaqaga arzimaydigan" insondan siyosat yo'lida "zo'r qahramon" yasaydilar.

Miryoqub - ishning ko'zini biladigan, aqli teran shaxs. Unda ikkita Miryoqub yashaydi. Biri ikkinchisini sud qiladi. Vaqti kelsa, o'zidan jirkanadi. Vijdoni oldida sobit turib beradi. Faqat "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar" deganlaridek, uning aqlni to'g'ri yo'lga solib yuboradigan, unga mash'ala bo'ladigan bir inson yo'q. Agar uni to'g'ri yo'lga boshlab qo'ysalar, xalqning ziyoli, yetuk, dunyoqarashi keng farzandiga aylandi. Miryoqubga noyib to'ra bejizga "amerikalikka

o'xshaysan" demagan. Qrim safarida unga bir jadid uchraydi. Ana shu jadid ta'sirida uning ongiga ziyo kirib keladi go'yo. Yurtiga, millatiga mehri tovlanadi. Miryoqub asar davomida qayta tarbiylanadi. Romanda aholining dinni ham to'liq anglamay unga ko'r-ko'rona itoat etayotgani, hatto dindorlarning ham dindan yaxshi xabari yo'qligi, hukumat odamlari oldida qassobni yonida turgan qo'zichoqday bo'lib qolishi keskin tanqid ostiga olinadi. Asarda mavjud tuzumning illatlari ochib tashlanadi. Romanning bosh g'oyalaridan biri ham mavjud tuzumni tag-tomiri bilan yulib tashlash. "Kecha va Kunduz" yozilgan davrda ham bu holat deyarli o'zgarmagan. Ehtimol, hukumat almashgandir, siyosatning ko'rinishi o'zgargandir, biroq natija, istak hamon o'sha-o'sha! Haliyam yurtni g'aflat uyqusidan uyg'otmoqchi bo'lganlar quvg'inda, o'qib, bilim olishni istaganlar "xalq dushmani". Cho'lponning maqsadi ham o'tmishni ko'rsatish orqali, xalqning yuziga ko'zgu tutish, asl ahvollarini ko'rsatish bo'lgan bo'lsa, ehtimol. Asarda mo'jazgina ishora mavjud mutaassib dindor Zebining otasi Razzoq shu qizini qurbon qilish evaziga bo'lsin, o'z piriga qarshi chiqibdiki, hukumatni isloh qilsa bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, roman murakkab ijtimoiy siyosiy davrda yaratilgan bo'lmasin, u o'sha davrda yaratilgan ko'plab asarlar singari mafkuraga emas, xalqning ma'naviy kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan asardir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ushbu asar Chólpon biografiyasidan olingan bólib ramziy timsollar bilan boyitilib asar sifatida taqdim etilgan hisoblanadi. Asarda keltirilgan Zebi obrazi hayotda Tursunoy deb nomlangan Chólpon kónglidan joy olgan yosh talant hisoblangan jamiyat ushbu talantlarni rivojlanishiga tósiq bólib ósha paytlar u qizni orqasidan dushmanlar kópayib óldirib quduqqa tashlab ketilgan qizni jasadini kórib ta'sirlanib ushbu asarni yozgan deb ba'zi arxiv manbalarda keltiriladi. Uning "Kunduz" qismi ham mavjud bólib ósha paytdagi jamiyat a'zolari tomonidan yoq qilingan deb aytiladi ensiklopediya va arxiv manbalarda. Ushbu asar Chólpon ijodidagi eng nodir beqiyos manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O. Sharofiddinov tanqidiy qarashlari
2. Daryo.uz.sayti
- 3.. Cho'lpon "Kecha va kunduz" "Sha^" nashriyot matbaa konsemining tahririyati Toshkent-2000
4. Cho'lpon "Adabiyot nadur" maqolasi 1914-yil
5. Dilmurod Quronov "Cho'lpon nasri poetikasi" "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent-2004
6. E.A. Begmatov "O'zbek tili antroponimikasi" "Fan" nashriyoti Toshkent-2013